Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 376
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

IJTIMOIY DAVLATDA INKLYUZIV TA'LIMNING AHAMIYATI: NAZARIY ASOSLAR, AMALIY TAJRIBA VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Abduqosim TOJALIEV[a,*], Dilmurod YO'LDASHEV[b]

[a] *Farg'ona Davlat Universiti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*
[b] *Farg'ona Davlat Universiteti tayanch doktoranti,*
✉ atojaliyev1979@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada ijtimoiy davlat tamoyillarining amalga oshirilishi kontekstida inklyuziv ta'lim ning nazariy va amaliy ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar asosida inklyuziv ta'lim ning huquqiy-meyoriy bazasi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, pedagogik texnologiyalari va rivojlanish muammolari yoritiladi. Bundan tashqari maqolada, inklyuziv ta'lim ning ijtimoiy davlat konsepsiyasi bilan bog'liqligi, imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini ta'minlash, zamonaviy innovatsion yondashuvlar va inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, soha rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar

inklyuziv ta'lim, ijtimoiy davlat, teng huquqlilik, ijtimoiy integratsiya, alohida ta'lim ehtiyojlari, inson huquqlari, davlat siyosati, innovatsion pedagogika, raqamli ta'lim texnologiyalari.

DOI: 10.5281/zenodo.21743094

KIRISH

Inklyuziv ta'lim — bu barcha o'quvchilar uchun, jumladan maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda, ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashga qaratilgan ta'lim tizimi. Bu tushuncha "inklyuziya" (inclusion) so'zidan olingan bo'lib, "qamrab olish", "ichiga kiritish" ma'nosini anglatadi. Boshqacha aytganda, inklyuziv ta'lim har bir bolani, jismoniy yoki psixik imkoniyatlaridan qat'iy nazar, umumiy ta'lim jarayoniga to'liq qo'shishni, uning shaxs sifatida shakllanishini va jamiyatning to'liq huquqli a'zosi bo'lishini nazarda tutadi [1]. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasida inklyuziv ta'lim quyidagicha ta'riflangan: "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim "[2]. Mamlakatimizda bugungi kunda yoshlarning ta'lim -tarbiyasi, sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb, g'oyat mas'uliyatli va muhim vazifalardan biri bo'lib, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Ayniqsa, butun dunyoda globalashuv jarayoni avj olgan bir paytda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy himoyasini tashkil etish, hayotga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Inklyuziv ta'lim o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. U quyidagi fundamental xususiyatlarga ega: Birinchidan, inklyuziv ta'lim ning qadriyatli-asosiy tamoyillari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;

- Har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- Har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- Har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi.

Ikkinchidan, inklyuziv ta’lim ijtimoiy voqelik omili bo‘lib, ijtimoiy xususiyatlarning to‘liq ifodalanishini ta'minlaydi. Uning tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Inklyuziv ta’lim ning qadriyatliligi (maqsadli qadriyatlar va vositali qadriyatlar);
2. Inklyuziv ta’lim tamoyillari (bosqichma-bosqich rivojlantirish, barcha bolalarning qadriyatlarini tan olish, ijtimoiy hamkorlik va sheriklik, oilaga yo'naltirilgan yondashuv, nogironlikning tibbiy modelini bekor qilish, xilma-xillik va individuallikni hurmat qilish);
3. Inklyuziv ta’lim subyektlari (o‘quvchilar, ota-onalar, pedagoglar, psixologlar, jamoat tashkilotlari);
4. Inklyuziv ta’lim ning ijtimoiy resurslari (o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va ota-onalar jamoasi).

Uchinchidan, inklyuziv ta’lim davlat siyosati sifatida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta’lim ga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim ning huquqiy asosini BMTning 2006-yildagi ”Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi tashkil etadi. Ushbu hujjatning 24-moddasida nogiron shaxslarning ta’lim olish huquqi kafolatlanib, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish davlatlarning majburiyati ekanligi ta'kidlangan. Konvensiyaga ko‘ra:

- Nogironligi sababli bolalar bepul umumiy o‘rta ta’lim tizimidan chetlashtirilmaydi;
- Nogironligi bor bolalar boshqalar bilan teng ravishda inklyuziv bepul boshlang‘ich va o‘rta ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- Sifatli ta’lim va tarbiya berish kafolatlanadi;
- Samarali ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan yordamni olishadi [3].

Shuningdek, ”Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”da maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlanishi, ”barcha huquqlar — barcha bolalarga” tamoyili e'tirof etiladi. 1994-yilda Ispaniyaning Salamanka shahrida qabul qilingan deklaratsiyada esa inklyuziv ta’lim ning ustuvorligi aniq belgilab qo'yilgan: ”Qiziqishlari, qobiliyatlari va ta’lim ehtiyojlariga ega bo'lgan har bir bola maktabda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, buning uchun maktabda pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak”[4]. Bu hujjatlar inklyuziv ta’lim ni nafaqat ta’lim siyosati, balki inson huquqlarini ta'minlashning muhim vazifasi sifatida belgilab beradi.

Ijtimoiy davlat — bu fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligini, tengligini va adolatini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo‘ygan davlat shakli. Bunday davlatning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- Fuqarolarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish;
- Zaif va imkoniyati cheklangan guruhlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Teng imkoniyatlarni yaratish;
- Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.

Inklyuziv ta’lim ijtimoiy davlat tamoyillarining amalga oshirilishida markaziy o‘rin tutadi, chunki ta’lim — ijtimoiy mobilizatsiyaning asosiy vositasi. Imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli ta’lim berish orqali ular kelajakda mustaqil hayot kechirish, o‘zini o‘zi ta'minlash va jamiyatga foydali a'zo bo'lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa davlatning ijtimoiy yukini kamaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov ta'kidlaganidek: ”Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada — bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o‘qiy olishi kerak”.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim ni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish 2017-yildan boshlangan. O‘sha yili qabul qilingan ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim ni tashkil etish vazifasi

belgilangan. 2019-yil 30-aprelda Prezidentning ”Nogironligi bo'lgan bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2019-yil 16-dekabrda ”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirdagi ”Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2020-yil 13-oktabrda ”Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori imzolandi. Ushbu hujjat bilan 2020-2025 yillarda xalq ta’lim i tizimida inklyuziv ta’lim ni rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha ”yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta’lim ini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi. ”2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-sonli qarori bilan ”Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlar” tasdiqlandi. Bu hujjat 4 ta bob va 7 moddadan iborat bo‘lib, kerakli chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar istiqomat qiladi, ularning 100 mingdan ortig‘i 16 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Davlat tomonidan ularning barchasini qamrab olish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda: 2022-2023 o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar maxsus ehtiyojga ega o‘quvchi tahsil olayotgani aniqlandi. 2023-2025 yillarda umumta’lim maktablarining 51 foizida inklyuziv ta’lim joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu davrda imkoniyati cheklangan bolalarning 40 foizi umumta’lim maktablariga jalb qilinishi ko‘zda tutilgan. Ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga oshdi. Bu esa kelgusida inklyuziv ta’lim ga bo‘lgan ehtiyojning yanada ortishini ko‘rsatadi. Biroq, statistik ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablariga kirish imkoniyati nogironligi bo‘lmagan bolalar uchun 99,8 foizni tashkil etsa ham, nogironligi bor bolalar uchun bu ko‘rsatkich 84 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalaridan foydalanish darajasi 20 foiz past bo‘ladi. Umumta’lim maktablariga o‘qishga kirish nogironligi bo‘lgan bolalar uchun 22 foizga, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim iga esa 46 foizga kam.

Zamonaviy texnologiyalar inklyuziv ta’limni yanada samarali qilish imkoniyatini beradi. Raqamli ta’lim platformalari va moslashtirilgan o‘quv materiallari o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishga imkon beradi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan kompyuter texnikalari va interaktiv ta’lim vositalari yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘zlashtirish jarayonlari yaxshilanadi. Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar o‘z vaqtida va joyida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning o‘quv jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar, jumladan, raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish, moslashtirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish va interaktiv o‘quv usullaridan foydalanish, inklyuziv ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilarning ta’lim jarayoniga moslashuvi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasining sezilarli darajada oshgani kuzatilgan.

Inklyuziv ta’limning eng muhim ahamiyati shundaki, u har bir bolaning ta’lim olish konstitutsiyaviy huquqini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga muvofiq ”Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi”. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunda esa ”Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi” ko‘zda tutilgan. Inklyuziv ta’lim orqali jamiyatda tenglik va adolat tamoyillari mustahkamlanadi. Bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki axloqiy zaruratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: ”Inson qadri barcha narsadan ulug‘”. Inklyuziv ta’lim aynan shu tamoyilning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan izolyatsiya qilishning oldini oladi. Ular o‘z oilalarida yashab, ota-ona mehridan bahramand bo‘lib, o‘z mahallalaridagi umumiy ta’lim muassasalarida tengdoshlari bilan birga o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning ijtimoiy hayotga to‘liq qo‘shilishiga yordam beradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra 12% kishilar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni odatiy maktablarda, nogironligi bo‘lmagan bolalar

bilan bir sinfda o‘qishini ma’qullagan bo'lsa, 15,5% kishilar odatiy maktabda lekin maxsus sinflarda o‘qishini ma’qullaganlar. Respondentlarning 70% esa bunday o‘quvchilar uchun eng yaxshi joy maxsus maktablar deb hisoblashgan. Bu ma’lumotlar jamiyatda hali ham eski stereotiplar mavjudligini ko‘rsatadi va ularni bartaraf etish uchun keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari olib borish zarurligini ta’kidlaydi.

Uzoq muddatli istiqbolda inklyuziv ta’lim iqtisodiy jihatdan ham samarali. Imkoniyati cheklangan shaxslarni ta’lim orqali kasb-hunar egalari qilish orqali ular mehnat bozorida ishtirok etishlari, o‘z daromadlarini o‘zlari topishlari mumkin. Bu esa davlatning ijtimoiy xarajatlarini kamaytirishga va iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston bo‘yicha joriy ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan bolalarning qariyb har 2 tasidan 1 nafari juda ko‘p xarajat va noqulay tizim sababli nogironlik bo‘yicha universal nafaqalarni olish imkoniyatiga ega emas. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun imkoniyatlar ham yetarli emas. Masalan, nogironligi bo‘lgan yoshlar orasida ta’lim , mehnat yoki kasb o‘rganish bilan band bo'lmaganlar 77% ni tashkil qilsa, bu ko‘rsatkich og‘ir nogironligi bo‘lganlar uchun 91% ga yetadi.

Inklyuziv ta’lim umumiy ta’lim tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagoglar individual yondashuv, differensial o‘qitish usullarini o‘rganadilar, o‘quv dasturlari moslashtiriladi, ta’lim muhiti takomillashtiriladi. Bu esa barcha o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim olish sharoitini yaratadi. Inklyuziv ta’lim tufayli nogironligi bo‘lgan bolalar me'yorida rivojlangan bolalar bilan teng huquqlilik asosida o‘qishiga, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lishiga, oilasi, ota-onasi bag‘rida yashashiga, ijtimoiy jamiyatga oson moslashishiga erishiladi.

Jismoniy to‘siqlar: shahar, maktab va sinf muhiti (qulay yashash va ta’lim olish muhitini yaratishga to‘sqinlik qiladigan arxitektura), transport, panduslarning mavjud emasligi yoki talabga javob bermasligi, barcha uchun qulay jihozlangan xonalarning mavjud emasligi. Ijtimoiy to‘siqlar: nogironligi bo‘lganlar bilan faoliyat yuritish madaniyati, nogironligi bo‘lganlar bilan muloqot qilish tajribasining yetarli emasligi. Kasbiy to‘siqlar: bilim va tajribaning yetarli emasligi, stereotiplarning (nogironligi bo‘lgan bola kasal, ular maxsus maktabda o‘qishi kerak) mavjudligi, kasbiy o‘ziga ishonchni yetarli emasligi, shaxsiy yutuqlarni baholay olmaslik. Psixologik to‘siqlar (o‘qituvchi va o‘quvchilarga tegishli): noma’lumdan qo‘rquv, o‘ziga-o‘zi belgilaydigan salbiy yo‘riqlar, o‘zgarishlarga tayyor emaslik, dangasalik, harakat qilishni istamaslik, kasbiy toliqish, ijodkorlikning yo‘qligi, ”maxsus” bolalar bilan ishlashga tayyor bo‘lmaslik, ”maxsus” bolani hissiy ”qabul qilmaslik”, muloqot to‘sig‘i - tushunmovchilik to‘sig‘i.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning aksariyatida kognitiv faollik darajasi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qitishning faol shakllari va yangicha usullarini izlash, ulardan foydalanish o‘qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishning zarur vositalaridan biridir. Bunday imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydigan pedagog, psixologiyadan ham chuqur xabardor bo‘lishi shart. Chunki psixologiya, har qanday insonni anglab u bilan muloqot olib borishda katta ko‘mak beradi. Shunday ekan biz ko‘tarib chiqayotgan mavzu ham asosan nogironligi bor bolalarga ta’lim berish va ularga ham ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishda ko‘maklashish bugungi kunning e'tibor qaratilishi zarur bo‘lgan masaladir.

Ba’zi hollarda ota-onalar inklyuziv ta’limga nisbatan xato tushunchalarga ega, bolalarini maxsus muassasalarga berishni afzal ko‘radilar. Ba’zi ota-onalar esa o‘z farzandlarini uylaridan uzoqda bo‘lgan maxsus maktablarga jo‘natishni istamaydilar, shuning uchun doimiy o‘z yashash joyidagi maktabga murojaat qilib o‘qituvchini uyga taklif qilish (uy ta’limi) ni afzal ko‘radigan ota-onalar ham bor.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga jalb etish, ular hayotini me‘yorga keltirish muammolarini yechishda quyidagi integratsiya jarayonlarini amalga oshirish kerak:

- Tug‘ma nogironlikni oldini olish, ota-onalarning bunday bolalardan voz kechishi va internat muassasalariga ularning yoppasiga jalb qilinishini oldini olish;

- Nogironligi bo‘lgan bolalarni internat kabi muassasalarni belgilangan yoshga to‘lishi bilan bajarilishi lozim bo‘lgan (o‘z oilasiga qaytishi, vasiylik yoki homiylikka berilishi, farzandlikka olinishi kabi) masalalar;

- Nogironligi bo‘lgan bolalarni kasb-hunarga o‘rgatish uchun o‘quv-ishlab chiqarish markazlarini tashkil etish hamda nogiron oila sharoitida tarbiya topayotgan nogironlikka ega bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash;

- Nogironligi bo'lgan bolalarning ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy rivojlanishiga e’tiborni kuchaytirish;

- Nogironligi bo‘lgan bolalarning hayot kechirishlariga halal beradigan to‘siqlarni bartaraf qilish, ularni

mustaqil hayot kechirishlari uchun yetarli shart-sharoitlarni vujudga keltiruvchi huquqiy dasturlar ishlab chiqish.

Agar nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiyalashuviga to‘g‘ri yo‘naltirilsa, u sog‘lom bolaga nisbatan bu jarayonga tez kirishib ketadi. Ushbu vazifalar belgilangan tartibda amalga oshirilsa, nogironligi bo‘lgan bolalarni jamiyatga inklyuziya qilish, kasbga yo‘naltirish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini oshirish va mustaqil hayotga tayyorlash sifatini yanada oshirishga erishiladi. Bunda ijtimoiy ish xodimining keys-menedjerlik faoliyati orqali erta aralashuvni amalga oshirish va idoralararo hamkorlikni ta’minlash muhim .

Inklyuziv ta’lim darslarni rejalashtirish va tashkil etishda rioya qilinishi kerak bo‘lgan maxsus didaktik tamoyillarga asoslanadi. Bir dars davomida barcha psixik jarayonlarni tuzatish mumkin emas. Darsda qaysi analizatorlar ko‘proq qatnashishini mavzuning o‘zi aniqlaydi. Tuzatish-rivojlantiruvchi vazifa juda aniq bo‘lishi kerak. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun darslarda fannining mazmuni asosan tilning ikki jihati: tinglash va nutq haqida o‘quv ma'lumotlarini o‘z ichiga oladi, ular nutq faoliyatining to‘rt turini o‘zlashtirish bilan bog‘liq ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun asos bo‘ladi: o‘qish va yozish. Nogiron bolalar uchun sinflardagi barcha to‘rt turdagi vazifalar o‘quvchilarning reproduktiv faolligini shakllantirishi va rivojlantirishi kerak. Aynan darsga qiziqtirish uchun tashkil qilinadigan interaktiv o‘yinlardan dars davomida (albatta mavzuga doir bo‘lgan holda) ko‘proq foydalanilsa, bolalarga individual fikrini bayon qilishi uchun sharoit yaratilsa bu albatta dars samaradorligini oshiradi, va biz ko‘zlagan maqsadga tezroq erishamiz.

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali inklyuziv ta’limni rivojlantirish mumkin. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida inklyuziv ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish, amaliyotchi pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish zarur. O‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish va yangi pedagogik metodlarni joriy etish orqali ta’lim sifati yanada oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta’lim zamonaviy ijtimoiy davlatning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini ta’minlash, balki butun jamiyatning ijtimoiy tengligi, adolati va barqarorligini mustahkamlash vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu sohada katta islohotlar amalga oshirilmoqda, huquqiy me’yoriy baza takomillashtirilmoqda, amaliyotda ijobiy natijalar erishilmoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda o‘sib, voyaga yetayotgan nogironligi bo‘lgan bolalarni har tomonlama mukammal tarbiyalash, ularning ichidan iqtidorli va iste’dodli bolalarni tanlab olish va ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom bolalar kabi ijod va bilim cho‘qqilarini egallashlariga ko‘maklashish, intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun moddiy va ma’naviy jihatan imkoniyat darajasida sharoitlar yaratib berishda integrativ yondashuv muhim sanaladi. Agar nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiyalashuv jarayonining dastlabki davrlaridan erta aralashuvni amalga oshirilsa, ta’lim olishga, hunar o‘rganishga qiziqishi oshib borsa, ularning bu jarayonga moslashib o‘zi tanlagan kasbini egallash uchun qiziqishi ortib boradi va ta’lim muassasasini bitirish davriga kelib unda o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil belgilash yoki tadbirkorlik faoliyati turlarini tanlashda aniq xulosalari shakllanadi. Kelajakda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. Huquqiy me’yoriy bazani yanada takomillashtirish: Mavjud qonunchilikda nogironligi bo‘lgan bolalarning baholash va imtihonlarda moslashuvini nazarda tutuvchi normativ hujjatlar ishlab chiqish.

2. Infra tuzilmani modernizatsiya qilish: Barcha yangi qurilayotgan va ta'mirlanayotgan ta’lim muassasasida to‘siqsiz muhit talablariga moslashtirish, transport va arxitektura to‘siqlarini bartaraf etish.

3. Kadrlar tayyorlashni kuchaytirish: Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida inklyuziv ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish, amaliyotchi pedagoglarni qayta tayyorlash.

4. Ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot ishlari: Inklyuziv ta’lim ning ahamiyati va samaradorligi haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish, noto‘g‘ri stereotiplarni barham berish.

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: YUNESKO, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tajriba almashish, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o'rganish.

6. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish: Raqamli ta’lim platformalari, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va interaktiv o‘quv usullaridan keng foydalanish.

Inklyuziv ta’lim orqali davlat nafaqat alohida guruhlarning huquqlarini himoya qiladi, balki kelajak

avlodni hamjihatlik, hurmat va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Bu esa o‘z navbatida demokratik, adolatli va taraqqiyotli jamiyat qurishga xizmat qiladi. Biz jamoatchilik e‘tiborini qaratmoqchi bo‘lganimiz bu nogironligi bo‘lgan bolalar va ularga inklyuziv ta’lim haqidadir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari ijrosini ta'minlash mamlakatimizning ijtimoiy davlat sifatida shakllanishining muhim ko‘rsatkichidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi ”Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda ”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-apreldagi ”Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi ”Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta’lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda ”Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoni.

6. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi ”Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-sonli qarori.

7. United Nations (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities. New York: United Nations.

8. UNESCO (2020). Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education. Paris: UNESCO.

9. Turg‘unov N.S. (2025). Inklyuziv ta’lim ni boshqarishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar. Inter Education & Global Study, 2025, №2. B. 462-470.

10. Qurbonova M.F. (2025). Inklyuziv ta’lim ijtimoiy fenomen sifatida. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 3(5), 83-88.

11. Abdumalikova Sh. (2025). Inklyuziv ta’lim ning tamoyillari va unga bo‘lgan ehtiyojlar, uning sabablari, bosqichlari. Yangi izlanuvchi jurnali.

12. Inklyuziv ta’lim : nazariya va metodika. O‘quv qo‘llanma. Devedu.uz.

13. Berdieva A., Shomahmudova R. (2008). Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim da o‘qitish uslublari. Toshkent: ”Ishonch markaz servis”.

14. Achilova S. ”Inklyuziv ta’lim : nazariya va metodika” (Xalqaro va milliy tajribalar). Chashma print. 2011-yil.

15. Ziyoyeva M. (2022). O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.